

FARG'ONA VODIYSI AN'ANAVIY TURAR JOYLARI ARXITEKTURASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI (QO'QON SHAHRI MISOLIDA)

Abdurasulova Gulshoda Olim qizi

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

O'zbekiston respublikai, Toshkent shahar

E-mail: abdurasulovagulshoda4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15401350>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qon shahri an'anaviy turar joylarining arxitektura xususiyatlari, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, ichki va tashqi rejalashtirish unsurlari, qurilish materiallari va iqlimga moslashuv darajasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Qo'qon arxitektura maktabining o'ziga xos tomonlari ochib beriladi va milliy me'moriy merosni zamonaviy qurilishda saqlab qolish bugungi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: karkasli qurilish, temir-beton, po'lat konstruksiya, sinchli uylar, Farg'ona arxitekturasi, seysmik barqarorlik, zamonaviy binokorlik, milliy me'moriy meros, ekologik moslashuvchanlik, ayvon, tobadon, namunaviy uylar.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируются архитектурные особенности традиционных жилых домов Ферганской долины, в частности города Коканда, факторы, влияющие на их формирование, элементы внутренней и внешней планировки, строительные материалы и уровень адаптации к климату. Раскрываются особенности Кокандской архитектурной школы и обосновывается необходимость сохранения национального архитектурного наследия в современном строительстве.

Ключевые слова: каркасное строительство, железобетонная, стальная конструкция, каркасные дома, архитектура Ферганы, город Коканд, сейсмостойкость, современное строительство, национальное архитектурное наследие, экологическая гибкость, веранда, терраса, типовые дома.

Abstract: This article scientifically analyzes the architectural features of traditional dwellings in the Fergana Valley, in particular in the city of Kokand, the factors influencing their formation, elements of internal and external planning, building materials, and the degree of adaptation to the climate. The distinctive features of the Kokand architectural school are revealed, and the need to preserve the national architectural heritage in modern construction is substantiated.

Keywords: frame construction, reinforced concrete, steel structure, frame houses, architecture of Fergana, the city of Kokand, seismic stability, modern construction, national architectural heritage, environmental adaptability, veranda, tobadon, model houses.

Kirish: Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng qadimiy va sermahsul hududlaridan biri bo'lib, bu yerda shakllangan an'anaviy uy-joy arxitekturasi xalqning turmush tarzi, iqlimiy sharoiti va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, Qo'qon shahri tarixan siyosiy va madaniy markaz sifatida rivojlangan bo'lib, bu yerda shakllangan me'moriy maktab o'zining noyob xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari o'zining turli-tuman tabiiy va iqlimiy sharoitlari bilan ajralib turadi. Bu farqlanishlar nafaqat xo'jalik yuritish uslublariga, balki har bir hududda shakllangan mahalliy madaniyat va arxitektura an'alariga ham bevosita ta'sir

ko'rsatgan. O'zbekistonning tarixiy-etnografik mintaqalari o'ziga xos madaniy meros, turmush tarzi va qurilish uslublariga ega bo'lib, ular o'zaro farqlanadi va har biri alohida o'rganishni talab qiladi.

Asosiy qism: Shu jihatdan, Farg'ona arxitektura maktabi o'zining mustaqil, yuksak darajada shakllangan me'moriy uslubi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi geografik jihatdan janub va shimoldan tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, uning iqlimi kontinental va yog'ingarchilik miqdori boshqa mintaqalarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Bu tabiiy sharoitlar aholining uy-joy qurilishiga bo'lgan yondashuvini belgilagan va atrof-muhitga mos arxitekturaviy yechimlar yaratilishiga olib kelgan.

Farg'ona uylarining arxitekturasida "darbaza-hovli" (kirish darvozasi va ichki hovli) printsipli asosiy tuzilma sifatida shakllangan. Hovli atrofiga joylashtirilgan yashash xonalari, ayvonlar, mevali daraxtlar, va uzum toklarining soyasida yaratilgan mikroiqlim uylarni issiq yozda salqin, qishda esa nisbatan iliq saqlashga xizmat qilgan. Bu passiv issiqlik boshqaruvi uslubi, bir tomondan, ekologik, boshqa tomondan esa madaniy-ruhiy qadriyatlar bilan bog'liq.



1-rasm. Qo'qon shahrining qadimiy an'anaviy turar joy arxitekturasida

Rasmda xom g'ishtdan qurilgan ikki qavatli uy, tomda saqlanayotgan sopol xumlar, tashqi zinapoya va ayvon konstruksiyasi ko'rinmoqda. Ushbu elementlar Farg'ona vodiysining iqlim sharoiti va mahalliy qurilish an'analarga mos ravishda shakllangan bo'lib, xalqning turmush tarzi va moddiy madaniyatini aks ettiradi.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng serhosil va nisbatan sernam iqlimga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Yillik yog'ingarchilik miqdorining yuqoriligi (ba'zi hududlarda 400–600 mm gacha) mahalliy arxitekturaviy yechimlarda o'z aksini topgan. Jumladan, tom yopmalarining qalinligi 40 sm gacha yetishi namlikdan himoyalash va issiqlikni saqlashda muhim rol o'ynagan. Ushbu arxitekturaviy elementlar tabiiy sharoitga moslashuvchanlikni ifodalaydi (1-rasm).

Farg'ona turar-joy uylarining eng ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri – bu inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi ayvonlar va derazalarning keng qo'llanilishidir. Ayvonlar xonalarni tabiat bilan bog'lab turuvchi oraliq zona bo'lib xizmat qiladi, yozning jazirasida salqinlik, qishda esa yopiq fazoga o'tish imkonini beradi. Ayvonlar ko'pincha ustunli, ochiq yoki yarim yopiq shaklda bo'lib, ularning dekorativ bezaklarida atrof manzaralar aks ettirilgan naqshlar keng uchraydi. Bu naqshlar nafaqat estetik, balki madaniy–ma'naviy ma'noga ham ega.

Ilmiy tahlil: Shuningdek, tobadon (shiftga yaqin joylashtirilgan derazacha) xonaga tabiiy yorug'lik tushishini me'yorlashtirishda va havo aylanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yorug'likni mo'tadillashtirish orqali energiya sarfini kamaytirish – bu an'anaviy arxitekturaning zamonaviy ekologik talablarga hamohang bo'lgan jihatlaridan biridir. Farg'ona uylari odatda yopiq arxitektura majmuasi sifatida shakllangan bo'lib, tashqi dunyodan mustaqil ichki muhitni yaratadi. Hovlilar ko'cha va qo'shni hovlilardan baland devorlar orqali ajratilgan, bu esa mahalliy madaniyatda muhim o'rin tutuvchi shaxsiy hayotga hurmat prinsipining fizik ifodasi sifatida qaraladi.

- uyning ichki tuzilishi asosan quyidagicha bo'lgan:
- usosiy xona (uy) – oilaning asosiy yashash joyi;
- old xona (dahliz) – tashqi muhitdan ichki makonga o'tish zonasini tashkil etadi;
- terassa (ayvon) – yozgi yashash yoki dam olish hududi sifatida xizmat qiladi.

Uyning o'lchami va xonalar soni oilaning tarkibi, yosh tarkibi va ijtimoiy mavqeiga qarab farqlangan. Ayrim hollarda xonalar joylashuvi hovlida o'stiriladigan ekinlarga ham bog'liq bo'lgan. Masalan, tokzorli hovlilarda uzum toklarini soyabon sifatida ishlatish orqali yozda salqin mikroiklim yaratilgan, bu esa issiqlikdan himoya qilish bilan birga, oziq-ovqat bilan ta'minlash funksiyasini ham bajargan. Farg'ona vodiysidagi an'anaviy turar-joy uylari, bir tomondan, mahalliy tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan, ikkinchi tomondan esa soddaligi, funksionalligi va ekologik moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu uylarning konstruksiyasi va tashqi ko'rinishi mahalliy iqlimga, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga va xalqning asrlar davomida shakllangan qurilish tajribasiga asoslangan. Farg'ona uylari asosan mahalliy materiallar – paxsa (gil), guvala, xom g'isht, pishgan g'isht va yog'ochdan qurilgan.

Turar-joy devorlari odatda pastki va yuqori tasma (ramka)lar orqali qurilgan bo'lib, ular orasiga vertikal ustunlar o'rnatilgan. Bu konstruksiyalar orasiga xom g'isht yoki guvala materiallari bilan to'ldirilgan. Ushbu tizim “sinch uylar” deb ataladi va ular quyidagi ikki asosiy turga bo'linadi:

Yakka sinch (bir qatorli) – bitta ustunli qatorda joylashgan, sodda va tez quriladigan variant.

Qo'sh sinch (1-rasm. Ikki qatorli) – ikkita parallel ustunlar qatori bilan mustahkamlangan, nisbatan barqaror konstruksiya. O'rta Osiyo hududida sinchli imoratlar qadim zamonlardan beri qurilish amaliyotida muhim o'rin tutib kelgan. Sinch — ya'ni yog'och karkasli konstruksiyalar — asosan tabiiy yog'och materiallardan tayyorlanib, arxitektura va qurilishda zamonaviylik va funksionallik uyg'unligini ifodalagan. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, sinchli uylar nafaqat estetik jihatdan jozibador, balki seysmik barqarorlik nuqtai nazaridan ham ustunlikka ega bo'lgan. Zilzila ta'sirida boshqa turdagi inshootlar zarar ko'rgan hollarda, sinchli binolar ko'p marotaba o'z mustahkamligini saqlab qolgan.

Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qon shahri misolida bu an'ana yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Qo'qon o'zining qadimiy arxitektura yodgorliklari bilan mashhur bo'lib, bu hududda sinchli qurilish uslubining turli namunalari, ayniqsa, XIX asrga oid xonadonlar, madrasa va masjidlar arxitekturasida kuzatiladi. Mahalliy iqlim sharoitlariga moslashgan bu konstruksiyalar yog'och va xom g'isht kombinatsiyasida yaratilgan bo'lib, ularning haroratsizlikka va yer silkinishlariga nisbatan yuqori chidamliligini ta'minlaydi.

Zamonaviy binokorlikda sinchli qurilish elementlarining qayta joriy etilishi ekologik barqarorlik, tabiiy materiallardan foydalanish va energiya tejamkorligi tamoyillari bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi yangilangan namunaviy uy-joy qurilish loyihalarida ushbu yondashuvga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, bir tomondan, milliy me'moriy merosni saqlash, ikkinchi tomondan, seysmik xavfli zonalarda xavfsizlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, sinchli imoratlar qadimiy tajriba va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligini namoyon qiluvchi konstruktiv yondashuv bo'lib, O'rta Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysi arxitektura an'analari o'z o'rnini saqlab qolmoqda va binokorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda.

Sinchlik uylar seysmik xavfsizlik nuqtai nazaridan mukammal bo'lmagan bo'lsa-da, ular iqlimiy izolyatsiya nuqtai nazaridan samarali bo'lgan. Qalin devorlar yozda salqinlik, qishda esa issiqlikni saqlab qolgan.



1-rasm. An'anaviy qo'sh sinchli uylar

Farg'ona uylari ko'pchilik hollarda ko'chaga yopiq, ya'ni ichki hovliga yo'naltirilgan shaklda qurilgan. Uyning tashqi fasadi baland devor va darvoza bilan ajralib turgan. Darvozaning usti esa murakkab "shlyapa" – ya'ni, dekorativ tom bezagi bilan bezatilgan. Bu dekorativ elementlar nafaqat estetik jihatdan muhim, balki uyning maqomini, egalarning ijtimoiy mavqeini ham bildirgan.

Farg'ona vodiysi an'anaviy uy-joy arxitekturasi o'zining nafaqat tashqi tuzilmasi, balki ichki makonlarni rejalashtirish, bezash va iqlimiy sharoitlarga moslashtirishdagi murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Xonalar o'zaro funksional aloqada bo'lib, ular geografik yo'nalish, fasllar, hamda ijtimoiy ehtiyojlarga qarab joylashtirilgan.

Adabiyotlar tahlili: Fan va texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, ayniqsa XX asr o'rtalaridan boshlab, qurilish materiallari sohasida tub o'zgarishlarga olib keldi. Endilikda an'anaviy yog'och asosidagi sinchli tizimlar o'rnini fizik-mexanik jihatdan yanada kuchli va uzoq muddatli materiallar — po'lat va temir-betondan tayyorlangan karkasli konstruksiyalar egallamoqda. Bunday konstruktiv yondashuv "sinch" atamasidan farqli ravishda hozirgi zamon texnik adabiyotida keng tarqalgan "karkas" termini bilan ifodalanadi.

Zamonaviy karkasli qurilishda ishlatilayotgan po'lat va temir-beton materiallarining elastiklik moduli, bosimga chidamlilik darajasi, deformatsiyaga qarshiligi va antiseysmik xususiyatlari yog'och sinchlardan tubdan farq qiladi. Shu sababli, bu materiallardan yasalgan karkaslarning konstruktiv sxemalari ham yangicha yondashuvni talab etadi. Ular ko'p qavatli binolar, savdo markazlari, sanoat inshootlari hamda infratuzilma obyektlarida keng qo'llanilmoqda.

Farg'ona vodiysi kabi zilzilaga moyil hududlarda, ayniqsa Qo'qon shahri singari tarixiy va urbanistik jihatdan ahamiyatli joylarda zamonaviy karkasli qurilishning afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuv bir tomondan inshootlarning mustahkamligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ularning loyihaviy moslashuvchanligini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, temir-beton karkasli inshootlar ko'p funksiyali binolarni yaratish, ichki makonlarni erkin tashkil etish va energetik tejamkorlik talablarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy Farg'ona uylari xonalarining me'moriy nisbati odatda 2:3 bo'lib, bu eng qulay va oddiy geometriya hisoblanadi. Ushbu nisbat xonada proporsionallik va harakat qulayligini ta'minlaydi. Xonalar quyidagi funksional tamoyillarga asoslangan holda joylashtirilgan:

Yozgi xonalar: shimol tomonga qaragan, keng va baland bo'lib, yozgi issiqlikdan himoya qilishga xizmat qiladi.

Qishki xonalar: hovlining qarama-qarshi tomonida, ya'ni janubga qaragan holatda, quyosh nurini maksimal darajada olish uchun joylashtirilgan.

Farg'ona uylari ichki makonlarida ham estetik did va funksional yechimlar uyg'unlashgan. Ayniqsa, ikki qatorli sinch tizimiga ega bo'lgan uylarda devorlar bo'ylab to'rtburchak va yarim gumbazli tokchalar (tahmon) o'rnatilgan. Ular asosan uy-ro'zg'or buyumlarini saqlash va xonaning ichki ritmini saqlashga xizmat qilgan.

Yotoqxonalarda an'anaviy mebellar – ko'pincha xonaning burchagiga joylashtirilgan, bu esa maydonni maksimal darajada ochiq saqlashga imkon bergan.

Devorlar va shiftlar uy egasining iqtisodiy holatiga qarab bezatilgan. Ganchli suvoq, rasmi shift, naqshli yog'ochli bezaklar tez-tez uchraydi. Bu bezaklar uy egasining estetik didi va ijtimoiy maqomini ham namoyon etgan.

Umumiy xonalar, ayniqsa mehmonxona yoki katta xona, qishgi sharoitda foydalanishga moslashtirilgan. Bunda:

Isitish tizimi (xumdon yoki pech) xonaning markazida yoki devor chetida joylashtirilgan;

Derazalarning joylashuvi va shakli esa yorug'lik va issiqlikni tejashga qaratilgan. [1]

XULOSA: Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qon shahri an'anaviy turar-joy arxitekturasini mahalliy iqlim, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, uning zahirida asrlar davomida to'plangan xalq qurilish tajribasi mujassamdir. Ushbu me'moriy maktab o'ziga xos konstruktiv tizimlar – sinchli (yog'och karkasli) uylar, hovli markazida joylashgan xonalar, ayvonlar, tobadonlar va mikroiklimni tartibga soluvchi elementlar orqali ekologik va funksional yondashuvlarni namoyon etadi.

Qo'qon arxitektura an'analarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, iqlimga moslashtirilgan rejalashtirish, material tanlashdagi ehtiyotkorlik va dekorativ estetikaga bo'lgan e'tibor alohida o'rin tutadi. Mahalliy materiallardan – guvala, xom g'isht, yog'och va ganchdan foydalanilganligi bu arxitekturaning ekologik barqarorligini ta'minlagan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pugachenkova, G.A. *Architecture of Central Asia in the 18th–19th centuries*. // Moscow: Nauka, 1960. -стр. 125.

2. Khakimov, A.M. (2007). *The Architecture of the Fergana Valley*. // Tashkent: Fan nashriyoti.
3. UNESCO Report on Vernacular Architecture in Uzbekistan, 2019.
4. Karimova, M. (2021). "Traditional Courtyard Housing in Kokand: Cultural Patterns and Spatial Syntax." // *Central Asian Architecture Journal*, 5(1), 45–60.
5. "Ayvan va Ganchsan'at: O'zbekiston me'morchiligi namunalarida" // O'zR Madaniyat vazirligi, 2022.
6. N.J. To'ychiyev Binova inshootlar konstruksiyasi. «Voris nashriyot» // M ChJ Toshkent — 2010.
7. Sheraliyev X.D. *Farg'ona an'anaviy turar-joy arxitekturasini zamonaviy turar-joy binolarida qo'llash* // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. — Paris, France, 2022. — 19-oktabr. — B. 169–182.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. // T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (PF-6186-son, 11.03.2021 y.) "Aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".

INNOVATIVE
ACADEMY